XITOY TILIDA FE'L + 出去 [CHŪQÙ] MODELINING QO'LLANILISHI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-45-46

Muxamedjanova Shahbora Kamolovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsent
TMC universiteti Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar kafedrasi
shahbora.mukhamedjanova@gmail.com

THE USE OF THE VERB + 出去 [CHŪQÙ] CONSTRUCTION IN THE CHINESE LANGUAGE

Mukhamedjanova Shahbora Kamolovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,
Acting Associate Professor
Department of Languages, Exact and
Social Sciences of TMC University
shahbora.mukhamedjanova@gmail.com

Annotation. *This article examines the use of the Verb + 出去 [chūqù] model in Chinese. It analyzes its function as a directional modifier in self-motion and caused-motion events and explores its Uzbek translation. The study shows that translation depends on context, verb semantics, and the spatial position of the subject.*

Kalit so'z va iboralar: *出去 [chūqù], yo'nalish modifikatori, harakat yo'nalishi, 自移事件 [zì yí shìjiàn], 致移事件 [zhì yí shìjiàn], xitoy tili, o'zbekcha tarjima, harakat fe'llari.*

Xitoy tilida yo'nalish modifikatorlari harakatning makondagi yo'nalishini ifodalashda muhim grammatik vosita hisoblanadi. Fe'l + 出去 [chūqù] modeli tayanch nutq makonidan tashqariga yo'nalgan harakatni bildiradi. Ushbu birlik 自移事件 [zì yí shìjiàn] va 致移事件 [zhì yí shìjiàn] doirasida qo'llanib, harakatning ichkaridan tashqariga yo'nalganligini aniqlashtiradi. Tadqiqot materialida ushbu modelning turli fe'llar bilan birikishi va o'zbek tiliga tarjima qilinish xususiyatlari misollar asosida ko'rib chiqiladi.

Xitoy tilida ko'chish hodisasini (位移事件 [wèiyí shìjiàn]) ikki turga ajratish mumkin: a) tashqi ta'sirsiz voqelangan hodisa (自移事件 [zì yí shìjiàn]); b) ta'sir ostida voqelangan hodisa (致移事件 [zhì yí shìjiàn]). Har ikki hodisada "fe'l+来" modeli asosidagi ko'chish so'zlovchi (kuzatuvchi subyekt) mavjud bo'lgan nuqtaga qarab sodir bo'ladi [Muxamedjanova 2022:69]. 自移事件 da 出去 asosiy fe'l bildirgan harakatning yo'nalishini aniqlashtiradi. Masalan, 奔出去 [bēn chūqù] "yugurib chiqmoq", 跑出去 [pǎo chūqù] "yugurib chiqib ketmoq", 追出去 [zhuī chūqù] esa kontekstga ko'ra "orqasidan chiqib kuzatmoq" mazmunida tarjima qilinadi [Wang Xiaobo:111; Zhao Guangming:32]. Bu misollarda o'zbekcha tarjima ko'pincha yetakchi fe'l va "chiqmoq" fe'li orqali ifodalanadi.

致移事件 da esa 出去 obyektning harakat yo'nalishini belgilaydi. 扔出去 [rēng chūqù] "otib yubormoq", 推出去 [tuī chūqù] "surib chiqmoq", 搬出去 [bān chūqù] "ko'chib chiqib ketmoq" kabi birikmalarda yetakchi fe'l harakatni, 出去 esa uning tashqariga yo'nalishini ifodalaydi [Wang Xiaobo:97,102]. 伸出头去 [shēn chū tóu qù] birikmasida ham 伸

“chiqarmoq” harakatni, yo‘nalish komponenti esa makondagi chiqish yo‘nalishini ko‘rsatadi [Wang Anyi:141].

Xulosa qilib aytganda, xitoy tilidagi Fe’l + 出去 [chūqù] modeli harakatning tayanch makondan tashqariga yo‘nalishini grammatik-semantik jihatdan ifodalovchi yo‘nalish modifikatori sifatida xizmat qiladi. 自移事件 (tashqi ta’sirsiz voqelangan hodisa)da 出去 subyekt harakatining tashqariga yo‘nalishini aniqlashtiradi, 致移事件(ta’sir ostida voqelangan hodisa)da esa obyektning tashqariga yo‘naltirilgan harakatini belgilaydi. Shuningdek, 出去 ning o‘zbek tilidagi muqobil ifodasi so‘zma-so‘z ekvivalent bilan emas, balki kontekst va yetakchi fe’l semantikasiga ko‘ra “chiqmoq”, “chiqib ketmoq”, “otib yubormoq”, “surib chiqmoq” kabi fe’l shakllari orqali yuzaga kelishi aniqlandi. Demak, 出去 komponentining funksiyasi mustaqil leksik ma’nodan ko‘ra, yetakchi fe’l bilan hosil qilgan harakat yo‘nalishi va makoniy munosabatni ifodalashida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A.A. 念, 讀, 看 iyerogliflarining asl va o‘zlashgan ma’nolarini aniqlash (yapon va xitoy tillarining qiyosiy tahlili). // Yaponshunoslik bo‘yicha xalqaro konferensiya materiallari. Tsukuba. Toshkent., – 2020. 王安忆. 老康回来（王安忆短篇小说系列）. – 上海: 上海文艺出版社，2015. – 341 页.
2. 王蒙. 组织部来了个年轻人（短篇小说１）. – 北京: 人民文学出版社，2003. – 408 页.
3. 王小波. 王小波全集. 第八卷. – 昆明: 云南人民出版社，2007. – 312 页.
4. 赵光明. 帕米尔远山的雪. – 乌鲁木齐: 新疆美术摄影出版社、新疆电子音像出版社，2009. – 140 页.
5. 杨德峰. 英语母语学习者趋向补语的系的顺序.世界汉语教学. 2003. No. 2. − 页 52-65.